


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgusidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4574,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 103,5 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (26,3 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 4086,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan (488,0 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2020- yil yanvar-avgust oylari davriga nisbatan xizmatlar hajmi (618,7 mlrd. so'mga) ko'paydi.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (175,9 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (161,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (106,3 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (32,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar
kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4574,5	103,5
Nukus sh.	2702,6	104,5
Amudaryo	171,9	102,2
Beruniy	182,4	102,3
Bo'zatov	10,6	105,1
Qorao'zak	56,4	101,7
Kegeyli	38,7	102,3
Qo'ng'irot	529,5	101,7
Qonliko'l	42,5	102,7
Mo'ynoq	38,4	102,9
Nukus t.	38,4	104,0
Taxiatosh	71,6	101,6
Taxtako'pir	44,7	102,7
To'rtko'l	206,1	102,3
Xo'jayli	188,8	102,4
Chimboy	80	102,4
Shumanay	44,7	103,1
Ellikqal'a	127,2	102,8

Shahar va tumanlar o'rtaida eng katta hajm Nukus sh. (2702,6 mlrd. so'm), Qo'ng'irot (529,5 mlrd. so'm), To'rtko'l (206,1 mlrd. so'm), Xo'jayli (188,8 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Bo'zatov (10,6 mlrd. so'm) tumanida kuzatilmoxda.


2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar- sentabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Bo'zatov tumanida (105,1 %), Nukus shahrida (104,5 %), Nukus (104,0 %) va Shumanay tumanlarida (103,1 %) qayd etildi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Taxiatsosh (101,6 %), Qorao'zak (101,7 %) va Qo'ng'irot (101,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'ttasida Nukus shahri (59,1 %), Qo'ng'iroq (11,6 %) va To'rko'l (4,5 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'ttasida eng kam ulush Bo'zatov (0,2 %), Mo'ynoq (0,8 %), Kegeyli (0,8 %) va Nukus (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2398,5 ming so'mga teng bo'ldi. 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish 102,0 % ni tashkil qildi.

2020- yil yanvar–sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 8414,0 ming so'm qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov tumanida - 491,8 ming so'm qayd etildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Bo'zatov tumanida - 104,6 % kuzatildi.



**2020- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4574,5	103,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	278,9	107,9
moliyaviy xizmatlar	934,3	127
transport xizmatlari	1201,4	104,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	664,2	102,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	129,2	100,5
savdo xizmatlari	1069,9	97,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	122,2	90,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	214	97,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	46,1	77,9
ijara xizmatlari	90	86,7
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	133,2	95,2
shaxsiy xizmatlar	165,2	94,4
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	61,8	66,6
boshqa xizmatlar	128,3	88,3

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da**



- | | |
|--|--|
| 1 Xizmatlar - jami
2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3 Moliyaviy xizmatlar
4 Transport xizmatlari
5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
6 Savdo xizmatlari
7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
10 Ijara xizmatlari
11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
12 Shaxsiy xizmatlar
13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
14 Boshqa xizmatlar |
|--|--|

2020- yil yanvar-sentabr oylarida 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar (27,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (7,9 %), Транспорт хизматлари (4,1 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	26,3 %
Savdo xizmatlari	23,4 %
Moliyaviy xizmatlar	20,4 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,1 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,7 %
Shaxsiy xizmatlar	3,6 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,9 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,8 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,7 %
Ijara xizmatlari	2,0 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,3 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,0 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (26,3 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) hissasiga to'g`ri keldi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	1201,4 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	1069,9 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	934,3 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	326,2 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	278,9 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	214,0 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	165,2 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	133,2 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	129,2 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	122,2 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1201,4 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (1069,9 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlari (934,3 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (278,9 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1069,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmidagi ulushi 23,4 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 79,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 7,0 % ni egallaydi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (322,9 mlrd. so'm), To'rtko'l (104,2 mlrd. so'm) va Xo'jayli (98,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov (4,7 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1069,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,9 % ni tashkil etdi.


**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Bo'zatov (117,4 %), Nukus (110,2 %), Amudaryo (109,6 %) va Kegeyli tumanlarida (109,2 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Nukus (85,7 %) shahrida qayd etildi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'ttasida Nukus shahri (30,2 %) va To'rko'l (9,7 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'ttasida eng kam ulush Bo'zatov (0,4 %), Kegeyli (1,6 %) va Nukus (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 1201,4 mlrd. so'mga teng bo'lди. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil etdi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (567,2 mlrd. so'm) va Qo'ng'iroq tumanida (375,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov tumanida (2,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Nukus shahrida (108,6 %) kuzatildi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 934,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,0 % ni tashkil etdi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy
xizmatlarning tarkibi, % da**



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
61-224-92-15**